
VELOMARAFON O'TKAZILDI

Rishton tuman hokimligi, tuman IIB bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, tuman sport bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi, Vatnaparvar tashkiloti, Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi, 30-iyunъ Yoshlar kuni munosabati bilan Rishton tumanida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida Yoshlar oyligi doirasida mahallalardagi yoshlar o'rtasida Velomarafon musobaqasi o'tkazildi. Velomarafonni o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, mahalla yoshlarida jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishni oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo'yicha mamlakat terma jamoalariga sport zaxirasini tayyorlash, yoshlarni sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb etishdan iborat. Rishton tumanida bo'lib o'tgan VELOMARAFON ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

2022-06-23 11:43:20